

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON: TIL VA MADANIYAT

Lingvistika

2022 Vol. 4 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2022 Vol. 4 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Mardon Rahmatov, Mo'minjon Turdibekov, Nodira Alavutdinova, To'lqin Tog'ayev, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Shoiri Bobomurodova, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Manzura Shamsiyeva, Muhabbat Madaminova, G'afforjon Rahmonov, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistik, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarini qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalariga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda ikki marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: linguistics@navoiy-uni.uz

linguistics1navoiy@gmail.ru

Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Dilrabo Baxronova, Mohinur Keldiyorova

Olam lisoniy manzarasida antropozoomorf leksikaning tavsiflovchi roli.....4

Munavvara Qurbonova

O'zbek bolalari nutqida sintaktik birliklarning deydik vazifasi.....16

Гулшан Асилова

Национальные реалии узбекского языка: проблемы

перевода и лингводидактики.....25

Cöre Hundayberdiyev

Özbek edebî dilinde ses uyumunun yok edilişi.....38

Durdona Mahkamova

Terminologik tizimda leksik modernizatsiyalashuvning voqelanishi.....51

Muattar Mo'minova

Ingliz va o'zbek tillarida time "vaqt" leksemasi semantikasi.....61

Xilola Uzakova

"Boburnoma"da "sadoqat" konseptining ifodalanishi.....79

Ma'suma Mo'minova

Badiiy matnda "suv" komponentining madaniy kod sifatidagi funksiyasi.....89

Nilufar Azizova

"Devonu lug'otit turk"da qarindoshlik munosabatlarini

ifodalovchi leksemalar mikromaydoni.....100

Shaxribon Musurmankulova

O'zbek-turk frazemalarining parallel korpusini

shakllantirishda diaxron yondashuv.....110

Abdullayev Ramazon, Nabiyeva Parvina

"Boburnoma"dagi ayrim salbiy fe'l-atvor sifat-leksemalarining tezaurusi.....119

O'rinova Zarifa

O'zbek she'riyatida toponimlarning pretsedent nom sifatida qo'llanishi.....128

Zarnigor Davronova

Abdulla Avloniyning dramatik asarlarida antroponimlar tahlili.....137

Mavjuda Lafasova

Omonimlar shakllanishida idrokning o'rni.....145

Mavjuda Artukmetova

Yozma nutq shakllanishining psixolingvistik tahlili.....153

Munisa Abduazizova

O'zbek va ingliz tillaridagi aynan bir xil soma bilan ifodalangan

sinonim somatik iboralar tahlili.....160

Iqlima Ergasheva

O'zbek tilidagi harakat-holat bildiruvchi lakunar

birliklarning semantik tasnifi.....172

“Boburnoma”dagi ayrim salbiy fe’l-atvor sifat-leksemalarining tezaurusi

Abdullayev Ramazon¹
Nabiyeva Parvina²

Abstrakt

Elektron formatdagi tezaurus har bir sohaga oid so’zlarni to’liq ochib beradigan lug’atlardan biridir. Oddiy lug’atlardan farqi shundaki, u har bir so’z mohiyatini to’liq yoritib beradi. Tezaurus lug’atda bir qancha lug’at belgilarining mujassamlangan holatini ko’rish mumkin. Bu lug’atning elektron formatdagi ko’rinishi bir so’z haqida to’liq ma’lumot olish bilan birga insonlarning vaqtini tejaydi. Maqolada “Boburnoma”dagi ayrim fe’l-atvor sifatlarining izohi, morfologik va sintaktik xususiyatlari, etimologiyasi, semantik tarkibi, frazeologik birliklarda qo’llanilishi va boshqa tillardagi tarjimai bilan tanishasiz.

Kalit so’zlar: “Boburnoma”, tezaurus, senset qator, giponim, giperonim, sinonim, antonim, xarakter-xususiyat sifatlari, salbiy fe’l-atvor sifatlari.

Kirish

Bugungi kunda kompyuter leksikografiyasi turli qo’shimcha imkoniyatlar asosida rivojlanmoqda. Dastlab kompyuter lug’atlari bir tilli, ikki tilli bo’lgan. Hozirda esa, ko’p tilli (uch, to’rt, olti, o’n tilli) elektron lug’atlar shakllantirilmoqda. Kompyuter lug’atlarining ilk ko’rinishlari faqat umumiy leksikon bilangina cheklangan. Endilikda lug’atlar fan, qurilish, aviatsiya, avtomobilsozlik, harbiy, diniy, yuridik sohalarga oid so’zlar bazasi bilan kengaytirilmoqda.

Kompyuter lug’atlarining bir nechta turlari bor [Эшмуминов, 2019:130]. Bularga chastotali lug’atlar, konkordans lug’atlar, chappa lug’atlar, tezaurus lug’atlar va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Tezaurus – leksik birliklarning to’g’ri qo’llanilishiga hissa qo’shishi kerak bo’lgan maxsus bilim sohasi bo’lib, zamonaviy

¹Abdullayev Ramazon Jumakilovich – Termiz davlat universiteti dotsenti.

E-pochta: abdullaevr@tersu.uz

²Nabiyeva Parvina Akbarjanovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti o’qituvchisi.

E-pochta: parvina.pn@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-6554-6653

Iqtibos uchun: Abdullayev, R., Nabiyeva, P. 2022. “Boburnoma”dagi ayrim salbiy fe’l-atvor sifat-leksemalarining tezaurusi”. *O’zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika* 4(1): 119-127.

tilshunoslikda leksik birliklar o'rtasidagi semantik aloqalar (sinonim, antonim, giperonim, giponim va boshqalar)ni ko'rsatadigan lug'atlarning maxsus turidir. [Пўлатов, 2007:54] Bu turdagi lug'atlar so'zlar va so'z birikmalari o'rtasidagi turli munosabatlar haqidagi axborotlarni saqlashga xizmat qiluvchi ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

Xarakter-xususiyat sifatlari, odatda, inson ruhiyati, xarakteri bilan bog'liq belgilarni ifodalaydi [Абдурахмонов, 1973:78]. Xarakter – xususiyat sifatlari tarkibiga abadiy, abjir, adabiy, ajib, azaliy, aziz, ayyor, badbin, badjahl, badiiy, badnafs, badrashk, baynalminal, balandparvoz, battol, vazmin, vaysaqi, vatanparvar, vafodor, daydi, dangasa, yebto'ymas, ochofat, parishonxotir, yovvoyi, zabardast, zakiy, kamgap va boshqalar kiradi. Xarakter-xususiyat sifatlariidan bir turkumi inson, predmet va hayvonlarning xarakter-xususiyatini ifodalashda umumiy qo'llanadi, bir turkumi esa faqat inson xarakteri yoki predmet xossasini ifodalashga xos bo'lib qolgan.

1. Insonning xarakter-xususiyatini belgilovchi sifatlari:

a) Insonlarga xos ijobiy sifatlari: *muloyim, odobli, chapdast, chaqqon, abjir, ziyrak, mo'min, sodiq, yuvosh, mohir, pok, sipo, mehribon* va b.

b) salbiy xarakter-xususiyatlarni bildiruvchi sifatlari ko'pincha ijobiy xarakter-xususiyatlarni bildiruvchi sifatlarga antonim sifatida qo'llanadi, ya'ni bu sifatlari kishilarning yoqimsiz, yaramas xususiyatlarini ifoda etadi: *zolim, nokas, toshbag'ir, shafqatsiz, quv, ayyor, muttaham, rasvo, ablah, dog'uli, uquvsiz, o'jar* va b. Shaxs xarakter-xususiyatini berishda yuqorida zikr qilingan sifatlardan tashqari boshqa turkumdagi (holat, shakl, maza-ta'm, rang-tus bildiruvchi) sifatlardan ham foydalanish mumkin. Bunday sifatllovchilar orqali ham kishilarga xos turli xarakter-xususiyatlar ochiladi: *Bir qaradi, ko'zi yomon o'tkir ekan, jonim chiqib ketayozdi*. ("O'zbek xalq dostonlari") U sarbast, ziyrak harakatlari dadil, so'zlari o'tkir, o'rtoqlari orasida onaboshi qiz. (Oybek)

v) Shaxs xarakter-xususiyatiga doir yana shunday sifatlari borki, ularning ma'nosidan ijobiylik yoki salbiylik yaqqol bo'rtib turmaydi. Nutq momentiga qarab, ular har ikkala chegarasiga ham o'tib olishi mumkin [Абдурахмонов 1982, 112]. Masalan: *dovdir, loqayd, sho'x, mahmadona, sinchkov, mag'rur, indamas, o'tkir* va b. *Gulchehra sal yengiltak va sho'x bo'lsa-da, o'zi juda mehr-oqibatli qiz*. (O.Yoqubov)

2. Narsa-buyum (predmet, jonivor, hayvon), holat, hodisa va shu kabilarning xarakter-xususiyatini ifodalash uchun qo'llanuvchi

sifatlar: *xonaki, dolzarb, dabdabali, tashvishli, asov, chopong’ich, sun’iy, tabiiy, tekin* kabi.

3. Shaxs va narsa-buyum xususiyatlari uchun birdek qo’llanaveradigan sifatlar: *yaxshi, yomon, zo’r, chidamli* kabi. Ba’zi sifatlar esa, yo kishi, yoki predmet belgisi uchun ko’chgan ma’noda qo’llanishi mumkin: *yengil, og’ir, dag’al, dardisar, qaysar, xira, uchar* va b. Insonning xarakter-xususiyati, ya’ni ruhiy holatini ifodalovchi ijobiy ma’nodagi ba’zi sifatlarini kuzatamiz.

Bobur shaxsning fe’l-atvorini tasvirlashda ijobiy fazilatlarini ulug’lagan; inson xarakteridagi qusurlarni kinoyaviy tarzda ifodalagan. XV-XVI asrlar o’zbek adabiy tilileksikasining ma’nodoshlik, ko’pma’nolilik xususiyatlarini ifoda etishda “Boburnoma” nodir manba hisoblanadi. Unda o’zbek tili sinonimlarining barcha ko’rinishlari o’z ifodasini topgan. U ushbu sinonimlardan avlodlarga yetkazmoqchi bo’lgan mazmunni to’la, aniq va go’zal tarzda ifodalash vositasi sifatida foydalangan.

Bobur shaxsning ma’naviy qiyofasini tasvirlar ekan, uning axloqiy nuqsonlarini ham aks ettiradi. U shaxsning salbiy fe’l-atvorini yorituvchi shunday so’zlarni qo’llaganki, o’quvchi asardagi shaxsning salbiy jihatlari haqida yaqqol tasavvurga ega bo’ladi.

Shaxslarning yomon muomalasini yoritishda *badzabon, bemazago’y, badkalom, badmaosh* so’zlari sinonimik qatorni hosil qilgan.

... *badzabon va fahshgo’y va xudpisand va tiyra mag’z mardak edi* [Бобур, 2002:87].

Badzabon

Morfologik va sintaktik xususiyatlari: *bad-za-bon*, *bad-sifat yasovchi* qo’shimcha, *zabon-ot*, turlanadi.

Talaffuz qilinishi: *badzabon*

Etimologyasi: *bad* – [*forscha* – *yomon*] Asosan *forscha-tojikcha* o’zlashma qo’shma so’zlarning birinchi tarkibiy qismi bo’lib, “*yomon*”, “*yaramas*”, “*zararli*”, “*yoqimsiz*” degan ma’nolarni ifodalaydi. [ЎТЛ, II, 132] Hozirda *bad* qo’shimcha sifatida ishlatiladi; *zabon* tojikcha so’zdan olingan bo’lib til degani. *Bad-* affiksishaxs va narsalarning yasash asosi anglatgan ma’no bilan bog’liq salbiy belgisini bildiruvchi sifat yasaydi. *badbo’y, badnom*.

Semantik tarkibi

Ma’nosi: tili *yomon*, achchiq so’z [БАЛ, 21], *yoqimsiz* gaplar aytuvchi, qo’pol tili, qo’pol so’zlardan foydalanuvchi.

Sinonimlari: *bemazago’y, badkalom, badmaosh*. “Boburnoma” da ushbu so’zlarning quyidagicha ifodalangan. *Badkalom* edi. So’zini

filhol anglab bo'lmas edi [Боёв 2002, 48,II]; Bovujudi nomardliq va namakharomliq kovak va bemazago'y ham bor ekandur [Боёв, 2002:104.II]; ...Umarshayx Mirzoning badmaoshligidan mutazarrir edilar [Боёв, 2002:37, I].

Antonimlari: xushzabon, xushmaosh, xushkalom.

Giperonimi: salbiy fe'l-atvor sifati

Giponimi: -

Fraziologizmlarda yoki turg'un birikma shaklida qo'llanishi: tili zahar, saxgo'y.

Boshqa tillardagi tarjimasi:

Ingliz tilida: rough

Rus tilida: грубый

Turk tilida: kaba

Qozoq tilida: өрескел

Tojik tilida: бадзабон

Hazrati Xo'ja Ubaydullohning mutaalliqdarig'akim, burun xarj va tahmillarda ko'p faqir va miskin alarning himoyati bila zulm va taaddidin xalos bo'lurlar edi, ne joyi ulkim, alarg'a mundoq takliflar bo'lg'ay, ko'p taaddi va tashaddud qila boshladi[Боёв, 2002:46, II].

*...Bir hisob bila asru **pursuxandur** [Боёв, 2002:165, I]...Mul-lo Muhammad Parg'ariy ko'p hikoyat qildikim oncha **purgo'yliq** qilib edi* [Боёв, 2002:86,I].

Pursuxan

Morfologik va sintaktik xsusiyatlari: pur-su-xan; sifat so'z tur-kumiga oid

Talaffuz qilinishi: pursuxan

Etimologiyasi: forschadan so'zdan olingan bo'lib, TjRSda pur shaklida keltirilgan; o'zbek tiliga tojik tili orqali kirib kelgan; "to'la", "ko'p" ma'nolarini anglatadi. Asosan otlar oldidan kelib, sifat hosil qiladi. Ba'zi hollarda otdan ot yasaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida pur- qo'shimcha sifatida qo'llaniladi; suxan so'zi ham fors tilidan o'zlashgan bo'lib, PRSda "so'xan" tarzida keltirilgan. "So'z", "nutq" degan ma'nolarni anglatadi.

Semantik tarkibi

Ma'nosi: ko'p gapiruvchi, ezma. "Boburnoma"da ezma, ko'p gapiruvchi insonlarning xarakterini yoritishda purgo'y va pursuxan kabi sinonimik paradigmalardan foydalanilgan.

Sinonimlari: purgo'y, sergap

Antonimi: kamgap

Giperonimi: salbiy fe'l-atvor

Giponimi: -

Fraziologizmlarda yoki turg'un birikma shaklida qo'llanishi:-

Boshqa tillardagi tarjimasi:

Rus tilida: разговорчивый

ingliz tilida: voluble, gabber

qozoq tilida: буксирлеу

turk tilida: pusu

tojik tilida: камин

...bularcha sharir mufattin va mudamma' va mutakabbir kishi bo'lmag'ay edi... [Бобур, 2002:212,I]

Mutakabbir

Morfologik va sintaktik xususiyatlari: mu-ta-kab-bir

Talaffuz qilinishi: mudammag'

Etimologiyasi: bu so'z arabchadan o'zlashgan bo'lib, dimog'dor dimog'i baland, manmanlikka berilgan degan ma'nolarni anglatadi.

Semantik tarkibi:

Ma'nosi: mag'rur, kibrli, o'zni katta oluvchi, kibr-havosi baland, o'zini hammadan katta his etadigan, takabbur, kibrli inson.

Sinonimlari: mutakabbir ("Boburnoma"da); kibrli, manman, dimog'dor, dimog'i baland.

Antonimi: kamtar, kamtarin, xokisor

Giperonimi: salbiy fe'l-atvor

Giponimi: -

Fraziologizmlarda yoki turg'un birikma shaklida qo'llanishi: Burni osmonga ko'tarilgan, dimog'i ko'tarildi, dimog'i shishdi.

Boshqa tillardagi tarjimasi:

Ingliz tilida: arrogant

Rus tilida: высокомерный

Qozoq tilida: тәкаппар

Turk tilida: dimagdar

Tojik tilida: димогдор

Bobur realist. U shaxs faoliyati mahsuliga baho berishda shunday sifatlardan foydalanadiki, biz u shaxs haqida aniq ma'lumotga ega bo'lamiz, Ta'rif bergan shaxs kim bo'lishidan qat'iy nazar uning kamchiligini aniq aytadi.

...past bo'yluq, tegira soqolliq, ko'ba yuzluk, tanbal kishi edi..."Boburnoma"da lavand, kovok so'zlari ham shu ma'noda kelgan. Lavand va xushbosh va sharobxo'r va ayyosh kishi edi [Бобур, 2002:234], ...vale xasis va moldo'st va ra'y va hasabdin yiroqroq va kavarak va telbarak kishi edi [Бобур, 2002:238, I].

Tanbal

Morfologik va sintaktik xususiyatlari: tan – bal. Tanbal-asos, sifat soʻz turkumiga mansub.

Talaffuz qilinishi: tambal

Etimologiyasi: forsha soʻzdan oʻzlashgan boʻlib, erinchoq, yalqov degan maʼnolarni anglatadi.

Semantik tarkibi.

Maʼnosi: yalqov, dangasa [БНЛ, 163], oʻtaketgan dangasa, yalqov, ishlashni yoqtirmaydigan [ЎТИЛ, 661] Ishlashni, mehnat qilishni istamaydigan.

Sinonimlari: yalqov, ishyoqmas, dangasa, soyapar (var)

Antonimlari: mehnatsevar, mehnatksh, tirishqoq, sergʻayrat, gʻayratli, gʻayratchan

Giperonimi: salbiy maʼnoni bilduruvchi sifat

Giponimi: -

Maʼnosi yaqin boʻlgan soʻzlar: landavur, tekinoxʻr

Frazeologizmlarda yoki turgʻun birikma shaklida qoʻllanishi: qorning suvini tebratmaydi, tepsa-tebranmas, dunyoni suv bossa oʻrdakka ne gʻam.

Boshqa tillardagi tarjimasi

Rus tilida: лентяй, лодыр;

Ingliz tilida: lazy, loafer

Qozoq tilida: жалқау

Turk tilida: tenbel, haylaz.

Tojik tilida: танбал

“Sulton Husayn mirzo qoshigʻa ham bordi, yaxshi rivoyat top-ti, lavand va xushbosh va sharobxoʻr va ayyosh kishi edi...” [Бобур 2002, 133, I]

Sharobxoʻr

Morfologik va sintaktik xususiyatlari: sha-rob-xoʻr Sharobxoʻr

Sharob - asos, ot, -xoʻr – sifat yasovchi qoʻshimcha

Talaffuz qilinishi: sharobxoʻr

Semantik tarkibi.

Maʼnosi: sharob ichishga ruju qilgan, berilgan [ЎТИЛ, IV, 586]

Sinonimlari: “Boburnoma”da sharobxoʻr, ayyosh, badsharob; mayxoʻr; Bir nima badsharob edi. Gʻijduvon urushida oʻldi [Бобур, 2002:135, II].

Antonimlari: -

Giperonimi: salbiy feʼl-atvor sifati

Giponimi: may ichuvchi, ichuvchi, ichkilikboz, aroqxoʻr

Etimologiyasi: sharob [a.+ichimlik: may, sharbat, vino] kayf beruvchi ichimliklarning umumiy nomi [ЎТИЛ, IV, 586].

-xo’r – [f. – yeyuvchi, ichuvchi; ochko’z] “yemoq”, “ovqatlanmoq, yutmoq, ichmoq” fe’llarining hozirgi zamon shakli otlarga qo’shib asosdan anglashilgan predmetni yeydigan, ichadigan yoki ko’p yeydigan ko’p ichadigan shaxsni bildiruvchi, xususiyat, holat sifatlarini yasaydi: aroqxo’r, go’shtxo’r. Bunday sifatlar ba’zan ot vazifasida ham qo’llaniladi [ЎТИЛ, V, 627].

Frazeologizmlarda yoki turg’un birikma shaklida qo’llanishi:

Boshqa tillardagi tarjimasi

Ingliz tilida: drinker, alcoholic, drunkard

Rus tilida: пьяница

Turk tilida: içici

Qozoq tilida: ішуші

Tojik tilida: майхўр

Ajab faqir va nomurod va bebaxt kishi ekandur. [Боёуп 2002, 139, I]

...Bu besaodat rustoiy mardaklar xud bu kishini ittifoq bila Axsig’a Tanbal qoshig’a yibormishlar...” [Боёуп, 2002:99, I]

Bebaxt

Morfologik va sintaktik xususiyatlari: be-baxt

be – otdan sifat yasovchi qo’shimcha

baxt – asos, ot; turlanadi; birlikda.

Talaffuz etilishi: bebaxt

Semantik tarkibi.

Ma’nosi: [be+baxt] ayn. baxtsiz [ЎТИЛ, I, 240], baxti ochilmagan, baxti kulmagan, omadsiz inson

Sinonimlari: baxtsiz, baxtiqaro, tole’siz. “Boburnoma”da besaodat, badbaxt sifatleri bilan sinonim bo’lib kelgan.

Antonimlari: baxtiyor, baxtli, saodatli

Giperonimi: salbiy fe’l-atvor sifati

Giponimi: -

Etimologiyasi: [be+baxt] ayn. baxtsiz [ЎТИЛ, I, 240]

Fraziologizmlarda yoki turg’un birikma shaklida qo’llanishi: tole’yi kulmagan, baxti chopmagan, baxti kulmagan, baxti ochilmagan, peshonasi sho’r. “Boburnoma”ning o’zida ham baxtsiz ma’nosini ifodalaydigan tiyrabaxt so’zi “qismati qora”, “baxtsiz” ma’nolari o’rnida qo’llanilgan: “...Agraga yettuk, dohil bo’lg’an kuni ul tiyrabaxtni bog’lab chirmab kelturdilar.” [Боёуп, 2002:456, I]. Bu yerda tiyra-“qora, qorong’i” (HAJ, 608); “bulutli”, “tumanli”, “noaniq” [TPC, 394] ma’nolarini ifodalagan.

Boshqa tillardagi tarjimasi:

Ingliz tilida: unfortunate, unhappy

Rus tilida: несчастный

Turk tilida: talıhsız

Qozoq tilida: бақытсыз

Tojik tilida: бадбахт

Salbiy xarakterni yoritishda so'zlardan o'z o'rnida foydalangan. Shaxs fe'l-atvoriga ta'rif berishda turkiy so'zlar faol qo'llanilgan. Masalan, shaxsning salbiy jihatlari umumlashtirilib, yaramas birligi orqali sifatlangan: Yaramas axloq va atvorliq kishi edi [Бобур, 2002:71]Ali Mazidbek munofiq va somonliq kishi edi.

Xulosa

Bobur shaxs fe'l-atvorini yoritishda so'zlardan unumli va mahorat bilan foydalangan. Sof turkiy, arab, fors, mo'g'ul, hind, pushtu kabi tillardagi sifatlar asarning, Bobur tilining jozibadorligini oshirishga xizmat qilgan. O'zgalarning fe'l-atvori, xarakter-xususiyatlarini til imkoniyatlari orqali mahorat bilan tasvirlagan.

Adabiyotlar

- Абдурахмонов, Ғ., Шукуров, Ш. 1973. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. Тошкент.
- Абдурахмонов, Ғ., Рустамов, А. 1982. *Қадимги туркий тил*. Тошкент.
- Бобур, З.М. 2002. *Бобурнома*. Тошкент.
- Пўлатов, А., Муҳаммедова, С. 2007. Компьютер лингвистикаси. Тошкент.
- Эшмуминов, А. 2019. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси. Қарши.

A thesaurus of some negative character adjective-lexemes in "Boburnoma"

Abdullayev Ramazan¹

Nabiyeva Parvina²

Abstract

The thesaurus in electronic format is one of the most complete dictionaries of words in every field. It differs from ordinary dictionaries in that it fully explains the essence of each word. In the thesaurus dictionary you can see the embodiment of several dictionary characters. The electronic format of this dictionary saves people's time while getting complete information about a word. In the article, you will get acquainted with the explanation, morphological and syntactic features, etymology, semantic structure, use in phraseological units and translation in other languages of some adjectives in "Boburnoma".

Key words: *"Boburnoma", thesaurus, senset series, hyponym, hyperonym, synonym, antonym, character traits, negative character traits.*

References

- Abdurahmanov, G', Shukurov, Sh. 1973. *Historical grammar of the Uzbek language. Morphology and syntax*. Tashkent.
- Abdurahmanov, G', Rustamov, A. 1982. *Ancient Turkic language*. Tashkent.
- Babur, Z.M. 2002. *Boburnama*. Toshkent.
- Polatov, A., Muhammedova, S. 2007. *Computational Linguistics*. Tashkent.
- Eshmuminov, A. 2019. *Database of synonyms of the national corpus of the Uzbek language*. Karshi.

¹ *Ramazon J. Abdullayev* – Associate professor of Termiz State University.

E-mail: abdullaevr@tersu.uz

² *Parvina A. Nabiyeva* – Teacher of Tashkent state university of uzbek language and literature named after Alisher Navai.

E-mail: parvina.pn@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-6554-6653

For citation: Abdullayev, R., Nabiyeva, P. 2022. "A thesaurus of some negative character adjective-lexemes in "Boburnoma"". *Uzbekistan: Language and Culture. Linguistics* 4(1): 119-127.

O'zbek she'riyatida toponimlarning pretsedent nom sifatida qo'llanishi

O'rinova Zarifa¹

Abstrakt

Ushbu tadqiqot ishimizda o'zbek tilshunosligida onomastikaning bir turi bo'lgan toponimlarning o'rganilishi va ularning vujudga kelishidagi asosiy sabablar o'rganildi. O'zbek she'riyati namoyandalaridan Omon Matjon, Shavkat Rahmon va Rauf Parfi she'riyatida uchragan toponimlarning pretsedent nom sifatida qo'llanishi, pretsedent nomning she'r mazmunini boyitishdagi ahamiyati, o'zbek she'riyatida qo'llangan milliy va universal toponimlar, hozirgi va tarixiy toponimlar, gidronim va urbanonimlarning pretsedent nom sifatida ifodalangandagi tasnifi tadqiqot obyekti sifatida o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida ayon bo'ldiki, ushbu shoirlarimiz o'z she'rlarida pretsedent nom vazifasida kelgan milliy toponimlarga qaraganda universal toponimlardan ko'proq foydalangan.

Kalit so'zlar: *toponim, gidronim, urbanonim, milliy toponimlar, universal toponimlar, hozirgi toponimlar, tarixiy toponimlar, pretsedent nom, kosmonimika, oykonimika.*

Kirish

Toponim (yun. topos – joy va onoma – ism, nom) – onomastikaning joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o'zgarishini, tarixiy-etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi turidir. Toponimlar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari til qonuniyatlariga bo'ysunadi, lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh so'zlardan farq qiladi. Shu

¹O'rinova Zarifa Jumanazar qizi – o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

E-pochta: zarifaorinova@gmail.com

ORCID-ID: 0000-0001-8249-5788

Iqtibos uchun: O'rinova Z., J. 2022. "O'zbek she'riyatida toponimlarning pretsedent nom sifatida qo'llanishi". *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika* 4(1): 128-136.

bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko'proq saklangan bo'ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg'uloti, qazilma boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi.

Toponimlar xalqlarning tarixiy o'tmishi xususiyatlarini jonlantirishga, ularning joylashish chegaralarini belgilashga, tillarning o'tmishdagi tarqalish hududlarini, madaniy va iqtisodiy markazlar, savdo yo'llari va shu kabilarni o'rganishga yordam beradi.

So'nggi 40-45-yil ichida toponimlarning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi. Bu sohada bir qancha tadqiqotlar maydonga keldi. Bunda rus olimlaridan V. A. Nikonov, A. V. Superanskaya, A. P. Dulzon, E. M. Murzayev, V. N. Toporov, O. N. Trubachev, o'zbek nomshunoslaridan H. Hasanov, E. Begmatov, T. Nafasov, S. Qorayev, 3. Do'simov va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. O'zbekiston toponimiyasi 20-asrning 60-yillaridan ilmiy asosda o'rganila boshlandi: Qashqadaryo, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo, Samarkand, Margilon, Qo'qon, Buxoro, Boysun, Mirzacho'l, Shahrisabz, Nurota hududlaridagi joy nomlari tadqiq etildi. Toponimlarga oid bir necha lug'atlar, risola va monografiyalar nashr etildi. H. Hasanovning "Yer tili" (1977), S. Qorayevning "Geografik nomlar ma'nosi" (1978), 3. Do'simovning "Xorazm toponimlari" (1985), T. Nafasovning "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" (1988), N. Oxunovning "Joy nomlari ta'biri" (1994) va boshqa shular jumlasidandir.

Ba'zi tilshunoslarimiz shartli ravishda toponimlarni quyidagi turlarga ajratiladi: gidronimika – suv havzalari: daryo, kanal, soy, ariq, buloq, ko'l kabilarning nomlarini o'rganuvchi soha; oykonimika – aholi yashash maskanlari va ularning qismlari: qishloq, mahalla, guzar, ko'cha, ovul, qo'rg'on nomlarini o'rganuvchi soha; oronimika – yer yuzasining relyef shakllari: tog', cho'qqi, qoya, qir, tepa, qiya nomlarini tekshiradigan soha; urbanonimika – shahar ichidagi har qanday ob'yektlar nomlarini o'rganuvchi soha; kosmonimika – Yerdan tashqaridagi ob'yektlar (osmon jismlari) nomlarini o'rganuvchi soha va boshqalar. Toponimlarning mazkur turlaridan gidronimlar, oronimlar, kosmonimlar aksariyat hollarda pretsedent nom darajasiga yetgan. Ulardagi mashhurlikni, butun insoniyat yoki ma'lum bir xalqqa taniqli bo'lishini ko'p guvohi bo'lganmiz. Yozuvchi va shoirlarimiz ham o'z asarlarida toponimlardan ko'p foydalanishadi va bu nomlarga lingvopoetik vazifa ham yuklashadi. Shuning uchun ham toponimlarni badiiy matndagi o'rni, ijodkor badiiy niyatini yoritishdagi turli xil vazifalari aniqlash va o'rganish tilshunos

olimlarimizning e'tiborini tortdi.

Tilshunos E.Qilichev badiiy asardagi toponimlarni o'rganishning ahamiyatini alohida ta'kidlab, shunday deydi: "Badiiy asar tilidagi geografik joy nomlarini o'rganish, avvalo, toponimika ilmini rivojlantirish uchun muhim bo'lsa, so'ngra yozuvchi yoki shoir uslubini belgilash uchun ham ahamiyatlidir" [Qilichev 1982.62]

Bundan tashqari ko'plab tilshunos tadqiqotchilar badiiy matn tilidagi toponimlarning yetarli darajada o'rganilmaganligini alohida ta'kidlaydilar: "Toponimiyaning lingvistik tahlili va izohiga bag'ishlangan ilmiy ishlar yetarli bo'lsa-da, lekin badiiy matndagi toponimlarni lingvistik tahlil etish, izohini berish, badiiy adabiyotdagi rolini ko'rsatishga bag'ishlangan ishlar yo'q darajada. Shuning uchun ham hozirgi kunda tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri, badiiy matn tilidagi toponimlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan kengroq o'rganishdir" [Qurbonov, 2006: 11]

Olimning fikrini ma'qullagan holda biz ham ushbu kichik tadqiqotimizda Shavkat Rahmon, Rauf Parfi va Omon Matjon kabi shoirlarimizning ijodida pretsedent nom sifatida qo'llangan toponimlarni tahlilga tortdik. She'rlarni tahlil qilish jarayonida nafaqat o'zimizning hududga mansub toponim balki boshqa yurtlarga tegishli toponimlarga ham duch keldik. Masalan:

Insonlar to'ygandir yolg'on-ovunchdan,
cheksiz g'azabdan titrar lablari.
Tarixga aylanur buyuk sog'inchdan,
Sahroyi Kabirday kuygan qalblari. [Rahmon Sh. 1987, 10]

Bu misralar Shavkat Rahmonning "Atlantika dovuli" she'ridan parcha bo'lib, "Sahroyi Kabir" toponimi pretsedent nom sifatida ishlatilgan. Bu toponim nafaqat o'zbek millati uchun, balki butun dunyo aholisi uchun dunyodagi eng katta cho'l sifatida mashhurdir. Shoir ushbu she'rida bu toponimdan tashqari Lonton, Parij, Biskay ko'rfazi kabi mashhur toponimlardan ham mohirona foydalangan.

Omon Matjon o'zining "Tabiatning "Qizil kitob"iga" nomli she'rida ham dunyoga mashhur pretsedent nom sifatida e'tirof etish mumkin bo'lgan bir qancha toponimlardan foydalangan:

Deylik, Los-Anjelos shahri ustiga
Qora qanot yoydi motorlar dudi.
Tokio, London, Nyu... Qurum bosgan ko'k-
Havoxo'r bir kalxat, ofat hudhudi!

Ushbu misralardagi Los-Anjelos, Tokio, London, Nyu-York kabi butun dunyoga mashhur toponimlarni bilmaydigan inson de-

yarli topilmaydi. Shoir bu misrasida ushbu katta megapolislarning tabiati buzilib ketayotganligi, aftomashinalar sababli ushbu shaharlarning havosi ham ifloslanib ketayotganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, ushbu she'rni o'qish davomida Afrika, Missisipi kabi pretsedent toponimlarga ham duch keldik.

Ma'lumki, rus tilshunosi V.V Krasnix pretsedent nomlarni milliy va universal pretsedent nomlariga ajratish fikrini ilgari suradi. [Красных В.В. 1998, 19] Yuqorida keltirilgan misollar asosida shuni aytishimiz mumkinki, shoirlarimiz she'rlarida milliy va universal toponimlardan pretsedent nom sifatida foydalangan. Quyidagi jadvalda Shavkat Rahmon she'rlarini tahlil qilish jarayonida duch kelgan milliy va universal toponimlarni keltirdik:

Milliy toponimlar	Universal toponimlar
O'zbekiston	Gurjiston
Xorazm	Osiyo
Amudaryo (Jayhun ko'rinishida ham uchraydi)	Ovro'pa
Sirdaryo	Biskay ko'rfazi
Hirof	London
Mashhad	Parij
Samarqand	Sahroyi Kabir
Buxoro	Sitsiliya
	Tyanshan
	Ispaniya
	Eron
	Xitoy

Ushbu jadvaldagi pretsedent toponimlar Shavkat Rahmon she'riyatida alohida o'rin tutganini guvohi bo'ldik. Toponimlarni statistika qilish jarayonida shoir milliy toponimlardan ko'ra, universal toponimlardan keng foydalanganligiga amin bo'ldik.

Omon Matjon she'riyatidagi milliy va universal toponimlar:

Milliy toponimlar	Universal toponimlar
Nukus	Sahroyi Kabir
Quva	Parij
Ellikqal'a	Sena (daryo)
Tuproqqal'a	Bobil
Xorazm	Berlin
Orol	London

Turkiston	Afrika
Urganch	Missisipi
Xiva	Los-Anjelos
O'zbekiston	Nyu-York
Ichan qal'a	Tokio
Dishon qal'a	Amerika
Amudaryo	Qrim
Sirdaryo	Rim
Namangan	Avliyo Pyotr(ibodatxona)
Qo'qon	Fransiya
Samarqand	Gobi (sahro)
Farg'ona	Istanbul
	Vavilon
	Polsha
	Yevropa
	Sibir

Demak, Omon Matjon she'rlarida ham milliy toponimlarga qaraganda universal toponimlardan ko'proq foydalangan.

Sevimli shoirimiz Rauf Parfi ijodini tahlil qilish jarayonida esa toponimlardan juda kam foydalanganligini bilib oldik.

Tilshunos T.Qurbonov badiiy matnda qo'llangan toponimlarni tahlilga tortish lozimligini ta'kidlab shunday deydi: "Toponimik tadqiqotlarda material to'plash va uni tasnif qilishga alohida ahamiyat berish, ya'ni tilshunoslikdagi diaxronik va sinxronik yondashishlarga asoslanish lozim. Bunga ko'ra, toponimlarni ikkiga bo'lish mumkin: 1. Tarixiy toponimlar 2. Hozirgi toponimlar". [Qurbonov 2006,12]

Shoirларimiz ijodida har ikki turdagi toponimlarni ham pret-sedent nom sifatida qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Shavkat Rahmon "Qizilqumda bir kun" nomli she'ri:

Jayhundaryo sohillarida-
nazaridan qolib ulug'vor suvning,
shamol esnog'idan shuv etib ko'chib,

buralib, uvalib yotibdi qumlik [Rahmon Sh. 1985, 45] misralari bilan boshlanadi. Bu she'rda "Jayhundaryo" tarixiy toponimi gidronim bo'lib, pret-sedent nom sifatida qayd etamiz. Bilamizki, jayhun tarixiy toponim sifatida Amudaryoning qadimgi nomidir. "O'zbek poetonimlarining izohli lug'ati"da bu nomdan shoir-larimiz o'z ijodida poetik uslub yaratishda foydalanganligini qayd

etib, shunday ta'rif beriladi:

“Jayhun – Amudaryoning qadimiy nomlaridan biri. Jayhun nomi she'riy matnlarda Amudaryo nomining o'rnida qo'llanib, yuqori poetik uslubni yaratishda vosita bo'lgan. Shuningdek, Jayhun arxaik gidronimi o'quvchi ongida Amudaryoning qadimiy daryo ekanligi haqidagi assotsiani ham yuzaga keltiradi. – Shundoq jo'sh uradi Jayhun ham pastda, Sahro qo'yniga ham tun cho'kar shundoq. (A.Oripov. Avgust). Jayhun daryosiday to'lqinlanding sen... Sen ko'nglim ko'zida gavharsan, Vatan (M.Ollomurod. Vatan). Sog'inchlarin izhoriday, Ochildilar jamollari, Gul qizlarning iforiday Esar Jayhun shamollari. (S.Sayyid. Jayhun shamollari). [Xudoyberganova D., Andaniyozova D. 2016, 38]

Yuqoridagi ta'rifdan anglanilganidek, aynan Jayhun varianti ham o'zbek xalqi lisoniy xotirasida haligacha mustahkam o'rin egallaganligini, xalqimiz ongida yashayotganligini va mashhurligini hisobga olsak, bemaolol bu tarixiy toponimni pretsedent nom deya olamiz. Shoir bir necha she'rlarida Amudaryoni xuddi shu tarixiy toponimi bilan atab qo'llaganligini guvohi bo'ldik. “Amudaryo qirg'oqlari” she'rida esa sarlavhadan ko'rinib turibdiki, hozirda ishlatilib kelayotgan zamonaviy toponim sifatida qayd etishimiz mumkin bo'lgan “Amudaryo” toponimidan ham foydalanadi:

Vaxshiy Amudaryo

qorayib borar

goh ochib, goh yopib o'lqon-domlarin.

Ko'rinmas endi hov tepaliklarda

Xorazm shohlarin istehkomlari... [Rahmon Sh. 1985, 22]

Shuningdek, shoirlarimiz ijodini tahlil qilish jarayonida Sirdaryo gidronimini “Sayhun” tarzida qo'llanganligini ham guvohi bo'ldik.

Bundan tashqari she'rlarda yurtimiz hududi yoki boshqa davlatlardagi turli me'morchilik obidalari, bino va inshootlar nomi ham alohida badiiy maqsadlar uchun foydalanilganligini ko'rdik. Bu birliklar ham toponimlar tarkibiga kiradi va ularni biz tilshunosligimizda urbanonimlar deb ataymiz. Omon Matjonning “Bir Xiva-ikki qal'a” she'ri mashhur urbanonimlar haqida yozilgan desak, also adashmaymiz. She'rda yurtimizda joylashgan tarixiy me'morchilik obidalari, Xorazm faxri Ichon qal'a va Dishon qal'a ta'riflanadi:

Ichon qal'a bugun - Xorazm faxri,

Bahor naqsh gumbazlar, minor, sardoba...

Shundadir ul buyuk Mahmudning qabri,

Shundadir shon, g'urur... Dishon - xaroba. [Matjon O., 1991: 2]

Bu urbanonimlarni mashhurligi sababli bemalol pretsedent nom deymiz. "O'zbek poetonimlarining izohli lug'ati"da ham ushbu inshootlarga ta'rif berilib, uning tarixiy barpo bo'lish davrlari va yillariga ham to'xtalib o'tilgan:

"Ichon qal'a, Dishon qal'a- Ichon qal'a-Xivaning ichki qal'a qismi. Shakllanishi Xorazmning qadimgi davridan boshlab 18-20-asrlarni o'z ichiga oladi. Ichan qal'ada Xorazmning asosiy me'moriy yodgorliklari joylashgan. Dishon qal'a esa Xivaning 7-8 m balandlikdagi 10 ta darvozasi bo'lgan tashqi qal'asi. 1842-yilda Xorazm xoni Olloqulixon tomonidan qurdirilgan" [Xudoyberganova D., Andaniyozova D., 2016: 47] Shuningdek, ushbu izohli lug'atning mualliflari ham she'riyatda Ichon qal'a va Dishon qal'aning o'zbek she'riyatida qo'llanishi va uning qanday poetic vazifada kelishini izohlash maqsadida Omon Matjonning aynan shu she'ri "Bir Xiva-ikki qal'a" misralaridan foydalangan: "Shoir Ichon qal'ani insonning siyratiga, Ichon qal'ani o'rab turgan tashqi, ya'ni Dishon (dishon- o'g'uz shevasida tashqi ma'nosini bildiradi) qal'ani uning suratiga o'xshatadi. Ichon qal'a va Dishon qal'aning metaforik ma'noda qo'llanishi she'rning oxirgi misrasi bo'lgan Asramoqni o'rgan Ichon qal'ani jumlasining ham ramziy ma'no kasb etishiga sabab bo'lgan. Bunda Ichon qal'a va Dishon qal'a toponimlari assotsiativ mazmunli, badiiy estetik jihatdan ta'sirchan bo'lgan she'r yaratilishida muhim ahamiyat kasb etgan. – Azaliy beomon bir hukmdir bu: Odam – Dishon qal'a, orzusi – Ichon! Oz yashab ko'p zahmat ko'rsa hamki u, Ruhin qoldirmog'I mumkindir omon. Men bugun Xivada viqorli turgan Asriy yodgorlardan tuyarkan ma'ni, Deyman: umr hikmatin bobongdan o'rgan, Asramoqni o'rgan Ichon qal'ani! (O.Matjon.Bir Xiva- ikki qal'a). [Xudoyberganova D., Andaniyozova D., 2016:48]

Demak, muayyan bino yoki inshoot nomi badiiy matnda ma'lum bir poetik vazifada qo'llangan deyishimiz uchun bu birlik, avvalo, ramziy ma'no bildishi lozim. Ammo, bu toponim ramziy ma'no bildirmasa ham ko'pchilikning lisoniy xotirasida yashayotganligi va mashhurligi uchun biz uni pretsedent nom sifatida qayd eta olamiz. Masalan: Shavkat Rahmonning "“Labi Hovuz”da" she'rida shunday misralar bor:

Tun yarmida
 sharqona, ko'hna
 tor ko'chalar tinchini buzgan
 ikki shoir, ikki og'ayni-
 kelib qoldik "Labi Hovuz" ga. [Rahmon Sh. 2012:75]

Bu misrada “Labi Hovuz” toponimi qo'llangan bo'lib, unda hech qanday poetik vazifa yuklanmagan. She'rni o'qigan o'quvchi shoir Buxoro shahriga ijodiy safarga borganligi va u yerdagi taassurotlari haqida ma'lumot olgandek bo'ladi. She'rdagi “Labi Hovuz” pretsedent nomini o'qib, Buxoroning markaziy maydonlaridan biri bo'lmish me'moriy ansamblni beixtiyor yodga oladi. Ziyrakroq tarixiy bilimga ega kitobxon esa bu ansambl XVI-XVII asrlarda yaratilganligi, maydoni Ko'kaldosh, Devon Begi madrasalari hamda Devon Begi xonaqohi binolaridan tashkil topganligini, atrofi Nodir begi hovuzi bilan birlashib ketganligi haqidagi ma'lumotlarni ham lisoniy xotirasida tiklaydi.

Demak, she'riyatimizdagi toponimlar pretsedent nom sifatida qo'llanganda kontekst bilan bog'liq holda ramziy ma'noda kela olishi, she'riy matn ta'sirchanligini oshirib lingvopoetik xususiyatlarini namoyon qilishi, va aksincha, hech qanday ramziy ma'no bildirmasdan joy nomining o'ziga ishora qilib, o'quvchi xotirasida mazkur toponim haqidagi bilimlarni tiklashga yordam berishi mumkin.

Adabiyotlar

- Omon Matjon. 1991. *Odamning soyasi quyoshga tushdi*. Toshkent: Yozuvchi.
- Qilichev, E. 1982. *Badiiy tasvirning leksik vositalari*. Toshkent: Fan.
- Qurbonov, T. 2006. *Badiiy asardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari*. Samarqand.
- Shavkat Rahmon. 2012. *Abadiyat oralab*. Toshkent: Movorounnahr.
- Shavkat Rahmon. 1987. *Hulvo*. Toshkent: Yosh gvardiya.
- Shavkat Rahmon. 1985. *Gullayotgan tosh*. Toshkent: Yosh Gvardiya.
- Xudoyberganova, D. Andaniyozova, D. 2016. *O'zbek poetonimlarining izohli lug'ati*. Toshkent: Turon zamin ziyo.
- Красных, В.В. 1998. *Виртуальная реальность или реальная виртуальность*. Москва.

The use of toponyms as precedent names in Uzbek poetry

Zarifa Orinova¹

Abstract

In this research work, the study of toponyms, which is a type of onomastics in Uzbek linguistics, and the main reasons for their emergence were studied. The use of toponyms found in the poetry of Uzbek poets Amon Matjon, Shavkat Rahmon and Rauf Parfi as precedent names, the importance of the precedent name in enriching the content of the poem, national and universal toponyms used in Uzbek poetry, the classification of current and historical toponyms, hydronyms and urbanonyms when expressed as a precedent name was studied and analyzed as a research object. As a result of the research, it became clear that these poets of ours used universal toponyms in their poems more than national toponyms used as precedent names.

Key words: *Toponym, hydronym, urbanonym, national toponyms, universal toponyms, current toponyms, historical toponyms, precedent name, cosmonymics, oikonymics.*

References

- Amon Matjon. 1991. *A man's shadow fell on the sun*. Tashkent: Writer.
Qilichev, E. 1982. *Lexical tools of artistic image*. Tashkent: Fan.
Kurbanov, T. 2006. *Linguistic analysis and interpretation of toponyms in a work of art*. Samarkand.
Shavkat Rahman. 2012. *Through eternity*. Tashkent: Movorounnahr
Shavkat Rahman. 1987. *Hulvo*. Tashkent: Young Guard.
Shavkat Rahman. 1985. *Flowering stone*. Tashkent: Young Guard.
Khudoyberganova, D., Andaniyozova, D. 2016. *Explanatory dictionary of Uzbek poetonyms*. Tashkent: Turon zamin ziya.
Krasnykh, V.V. 1998. *Virtual reality or real virtuality*. Moscow.

¹*Zarifa J. Orinova* – teacher, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: zarifaorinova@gmail.com

ORCID-ID: 0000-0001-8249-5788

For citation: O'rinova Z. 2022. "The use of toponyms as precedent names in Uzbek poetry". *Uzbekistan: language and culture. Linguistics* 4(1): 128-136.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasini qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

V.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

VII.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*. Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

Ikki mualliftomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VII.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi

“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]
[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]
[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: Language and Culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any

opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1) Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s).

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of The Chicago Manual of Style, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: Title of the Book. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, "Author's own" translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*.

Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text (“As of July 19, 2008, the McDonald’s Corporation listed on its website . . .”). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. “Google Privacy Policy.” Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald’s Corporation. 2008. “McDonald’s Happy Meal Toy Safety Facts.” <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald’s 2008]

IZOHLAR

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.

Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.linguistics.tsuul.uz

E-mail: linguistics@navoiy-uni.uz
linguistics1navoiy@gmail.ru

Bosishga 26.12.2022-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturası.
Nashr b.t. 12.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.

"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.

Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.